

## Hubey Technology Market Association TIQXMMIda

Uchrashuv "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti dekani U.Qo'ziyev, "Qishloq xo'jaligi mashinalari" kafedra mudiri K.Astanakulov va Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i Sh.Raxmonov va Hubey Technology Market Association korxonasi vakilari bilan birgalikda bo'ldi. Uchrashuvni U.Qo'ziyev ochib berdi va K.Astanakulov tomonidan TIQXMMI va uning faoliyati haqida qisqacha ma'lumot berib o'tildi.

Hubey Technology Market Association - Xitoyning qishloq xo'jalik texnikalarini ishlab chiqarish bo'yicha yirik korxonalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston va Vuxan provinsiyasi iqlim, ekologik va tuproq qatlamlarining sharoitlari o'zaro o'xshashligi ularning bu o'lkada texnologiyalarini joriy etish uchun yaxshi imkoniyat ekanligini ta'kidlab o'tildi.

Yangiyo'ldagi baliqchilik xo'jaligidagi tajriba xo'jaliklari haqida so'zlab berishdi. Ushbu korxonalar institut bilan hamkorlik imkoniyatlari haqida muzokaralar olib borildi.



Institut Matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov